

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA
BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.72.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

KENJAEV AZIZ ABITQULOVICH

**O‘SIMLIKLARNI ABIOTIK OMILLARGA CHIDAMLILIGINING
EKOLOGIK-FIZIOLOGIK XUSUSIYATLARI**

03.00.07-O‘simliklar fiziologiyasi va biokimyosi hamda 03.00.10 – Ekologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro– 2024

UDK: 581.1: 633.12:631.82

**Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
биологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on biological
sciences**

Kenjayev Aziz Abitqulovich

О'simliklarni abiotik omillarga chidamliligining ekologik-fiziologik
xususiyatlari.....5

Кенжаев Азиз Абиткулович

Эколого-физиологические особенности устойчивости растений к
абиотическим факторам.....19

Kenjaev Aziz Abitkulovich

Ecological and physiological features of plant resistance to abiotic
factors.....37

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works.....41

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA
BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.72.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

KENJAEV AZIZ ABITQULOVICH

**O‘SIMLIKLARNI ABIOTIK OMILLARGA CHIDAMLILIGINING
EKOLOGIK-FIZIOLOGIK XUSUSIYATLARI**

03.00.07-O‘simliklar fiziologiyasi va biokimyosi hamda 03.00.10 – Ekologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/B406 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Guliston davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbarlar:

Xolliyev Askar Ergashovich

biologiya fanlari doktori, professor

Qo'shiyev Habibjon Hojiboboyevich

biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Mambetullayeva Svetlana Mirzamuratovna

biologiya fanlari doktori, professor

Avutxonov Burxon Sobirovich

biologiya fanlari falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.B.72.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «___» _____soat___:___dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+99865) 212-29-12; faks: (+99865) 212-29-14; e-mail: bsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____) raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+99865) 212-29-12; faks: (+99865) 212-29-14.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «___» _____ kuni tarqatildi.

(2024-yil «___» _____ dagi №___ raqamli reestr bayonnomasi).

X. T. Artikova

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi,
biologiya fanlari doktori, professor

A.M. Qobilov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, biologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent

S. B. Bo'riyev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, biologiya
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ekologik vaziyat keskinlashuvi bilan bog‘liq holda, tashqi abiotik omillar, jumladan, tuprog‘ning sho‘rlanish darajasi ortishi tufayli foydalanishdan chiqib borayotgan ekin maydonlarida o‘simliklar qoplamini hosil qilish va tuproq-iqlim sharoitga mos, chidamli ozuqabop o‘simliklarni etishtirishga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Shunga ko‘ra tuproq ekologiyasini yaxshilash hamda soni ortib borayotgan aholini ekologik xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish maqsadida o‘simliklarning sho‘rga va qurg‘oqchilik sharoitiga chidamli tur va navlarini tanlash strategik ahamiyatga egadir. Bunda o‘simliklarning fiziologik-biokimyoviy xususiyatlarini tahlil qilgan xolda tuproq-iqlim sharoitiga mos tur va navlarini ilmiy xulosalar asosida tanlash dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Dunyoda tuproq ekologiyasini o‘simliklar resurslari yordamida yaxshilash va aholining ekologik xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talablarini qondirish maqsadida qishloq xo‘jaligi o‘simliklarining hosildorligi va hosili sifatini oshirish, tashqi stress omillarga chidamli tur va navlarni tanlash, yaratish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, o‘simliklarning fiziologik-biokimyoviy xususiyatlarini tadqiq qilish asosida mahsuldorligi, o‘sishi va rivojlanishiga tashqi omillarni ta‘sirini boshqarish hamda biologik belgilari ko‘rsatkichlarida bo‘ladigan o‘zgarishlarni tahlil qilgan holda bio va agrobioxilmaxillikni saqlash hamda rivojlantirishga alohida e‘tibor berilmoqda.

Mamlakatimizda o‘simliklarning genetik resurslarini saqlash va ko‘paytirish hamda ulardan agrar sohani rivojlantirishda foydalanish, molekulyar-genetik hamda fiziologik-biokimyoviy yondashuvlar asosida tadqiq qilish orqali muayyan natijalarga erishilgan. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Taraqqiyot strategiyasida¹ «ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish» bo‘yicha muhim vazifalar belgilangan. Shunga ko‘ra mamlakatimizda o‘simliklarning genetik resurslarini saqlash asosida tashqi omillarga chidamli tur va navlarini tanlash hamda bio va agrobioxilmaxillikni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son Farmoni hamda 2019-yil 14-martdagi «Mevasabzavotchilik sohasida qishloq xo‘jaligi kooperatsiyasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4239-raqamli Qarorining Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-iyundagi «2019 – 2028-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilmaxillikni saqlash strategiyasi»to‘g‘risidagi 484-son Qarorida sharoitga mos o‘simlik tur hamda navlarini tanlash va yaratish bo‘yicha hamda mazkur faoliyatga tegishli

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28yanvardagi PF-60-son “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishning V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Xorijda o'simlik resurslarining noqulay omillarga chidamlilik potentsiali hamda turlar jamoasining fitotsenotik va ekologik-fiziologik xususiyatlari H.Willis, D.Elwain (2002); .A.Juchenko (2005); N. Sheveluxa (2005); S.Rosseev va boshqalar (2011) hamda N. Lutova (2013) ishlarida keltirilgan. O'simliklarning stress omillariga chidamliligining hujayraviy va populyatsion darajalari mexanizmi F.Titov va boshqalar (2007); R.Munns, M.Tester (2008) ishlarida kuzatish mumkin.

O'zbekistonda olib borilgan tadqiqotlarda o'simlik resurslarining barqarorligini o'rganishda tuproq-iqlim sharoitining murakkabligi va xilma-xilligi, mintaqaning agrar yo'nalishi, biologik xilma-xillikning o'ziga xosligi va suv tanqisligi hamda tuproq sho'rlanish darajasining oshishi va boshqa bir qator ekologik muammolar bilan bog'liq holda chidamli tur va navlarni tanlashning ekofiziologik tizimi J.X.Xodjayev (1985); R.M.Usmonov (1997); A.E.Xolliyev (2016); A.Danaboyev (2017); U.T.Norboyeva (2019); A.Muradilloev (2021); Yo.D.Xolov (2021); Z.A.Boltayeva (2022) tomonidan o'rganilgan.

Yuqorida keltirilgan manbalardagi ma'lumotlar ishning dolzarbligini asoslaydi, biroq o'simliklar fiziologiyasi va ekologiya usullariga asoslangan holda o'simlik resurslarining noqulay abiotik omillarga chidamliligini o'rganish va baholashda kompleks yondashuvni ishlab chiqish zarurligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu munosabat bilan, o'simliklar resurslarining turli darajadagi stressga chidamliligini ekofiziologik jihatdan baholashga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari ilmiy adabiyot manbalarida deyarli uchramaydi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Guliston davlat universiteti ilmiy-tadqiqot rejasining "Sho'rlangan tuproqlar unumdorligini oshiruvchi agrobiotexnologiyalar" hamda "Sho'rga chidamli o'simliklarning genetik kolleksiyasining raqamlashtirilgan malumotlar bazasini shakllantirish" mavzularidagi amaliy loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'simlik resurslarining abiotik omillarga chidamliligini, ularning ekologik-fiziologik xususiyatlarini aniqlash hamda tur va navlarga stress omillar ta'sir ko'rsatkichlarini baholashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o'simlik genotiplarini tashqi omillarga chidamlilik ko'rsatkichlarini baholash va tahlil qilish;

o'simlik genotiplariga suv tanqisligi ta'sirini baholash maqsadida barglardagi umumiy suv miqdori, barglardagi kunduzgi suv tanqisligi, hujayra shirasining quyuqlik darajasi, barg hujayralarining turgotsentlik darajasi va boshqa ko'rsatkichlarni qiyosiy tahlil qilish;

o'simlik genotiplariga tuproq sho'rlanishi ta'sirini baholash maqsadida barglardagi umumiy suv miqdori, barglardagi kunduzgi suv tanqisligi, hujayra shirasining quyuqlik darajasi, barg hujayralarining turgotsentlik darajasi va boshqa ko'rsatkichlarni qiyosiy tahlil qilish;

ekologik stressorlar va boshqa ekstremal omillarga nisbatan majmuaviy chidamli hamda mahsuldorlik darajasi yuqori bo'lgan navlarni ilmiy asoslangan holda hududlar kesimida ishlab chiqarishga tavsiya etish;

sho'rlangan ekin maydonlarini o'simliklar resurslari yordamida ekologik qayta tiklashning agroekologik asoslarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obykti sifatida Guliston davlat universiteti Eksperimental biologiya laboratoriyasi qoshida tashkil etilgan "O'simliklar genbanki"da saqlanayotgan donli, dukkakli donli, moyli, texnik, ozuqabop ekin turlari va ularning seleksion namunalari, navlari hamda chetdan introduksiya qilingan o'simliklar navlari olingan.

Tadqiqotning predmetini o'simlik genotiplarining abiotik omillarga chidamlilik darajalarini fiziologik va ekologik xususiyatlarini aniqlash, stress omillarga chidamli bo'lgan tur va navlarning suv tanqisligi hamda sho'rlangan tuproq-iqlim sharoitga chidamlilik ko'rsatkichlarini baholash tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borishda fiziologik va biokimyoviy, ekologik, molekulyar-genetik tadqiqot usullaridan, O'simlikshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti uslubiy ko'rsatmasi (1999) va qo'llanmasidagi usullardan, o'simlik genotiplarining navlari va kolleksion namunalarning xo'jalik, fiziologik va biokimyoviy hamda molekulyar genetik ko'rsatkichlarini statistik baholashda SPSS-17 dasturidan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'simlik genotiplariga suv tanqisligi va tuproq sho'rlanishining ta'sir ko'rsatkichlari barglaridagi umumiy suv miqdori, barglardagi kunduzgi suv tanqisligi, hujayra shirasining quyuqlik darajasi, barg hujayralarining turgotsentlik darajasi optimal va cheklangan namlik sharoitlarida baholangan;

o'simliklar turlari kesimida genotiplarning chidamlilik darajalari solishtirma baholanib, seleksion jarayonda tanlov ishlarini olib borish hamda boshlang'ich manbalarni tanlash uchun noqulay abiotik omillarga bardoshlilik va mahsuldorlik darajasi yuqori bo'lgan genotiplar fiziologik-biokimyoviy ko'rsatkichlari asosida aniqlangan;

ilk bor ekologik stressorlar va boshqa ekstremal omillarga nisbatan majmuaviy chidamlilik hamda mahsuldorlik darajasi ilmiy asoslangan holda o'simlik turlari va genotiplar kesimida besh ballik shkala asosida baholangan;

sho'rlangan ekin maydonlarini o'simliklar resurslari yordamida ekologik qayta tiklashning agroekologik asoslari ishlab chiqilgan va stress omillarga chidamli bo'lgan navlarni tanlash orqali suv tanqisligi hamda sho'rlangan ekin maydonlariga mos o'simlik tur va navlarini tanlash tizimi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Genotiplarning abiotik omillarga chidamlilik xususiyatlaridan kelib chiqib, ulardan sho'rlanish tufayli foydalanishdan chiqib ketgan sug'oriladigan maydonlarni ekologik qayta tiklashda foydalanilgan va genotiplarni Sirdaryo

viloyatining ekologik stressorlar ta'siri kuchli bo'lgan hududlariga joylashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

abiotik stressorlar va boshqa ekstremal omillarga nisbatan majmuaviy chidamlilik hamda mahsuldorlik darajasi o'simlik turlari va genotiplar kesimida besh ballik shkala asosida ilmiy asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi ishda qo'llanilgan tadqiqot usullari, nazariy ma'lumotlarning olingan tajriba natijalari bilan mos kelishi, laboratoriya va vegetatsion tajribalardagi biokimyoviy va fiziologik ko'rsatkichlarni aniqlash mos uslublar bilan amalga oshirilganligi, tajriba ma'lumotlarining dispersion statistik tahlil qilinganligi, ilmiy tadqiqot natijalarining respublika, xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamasi, yetakchi mahalliy ilmiy jurnallarda va xorijiy jurnallarda chop etilganligi, tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati quyidagilardan iborat:

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati sug'oriladigan yerlarning suv tanqis va sho'rlangan tuproqlar sharoitida genotiplarning ekofiziologik xususiyatlariga noqulay ekologik omillar ta'sirini solishtirma ilmiy asoslash hamda abiotik stressorlar va boshqa ekstremal omillarga nisbatan majmuaviy chidamlilik va mahsuldorlik darajasi o'simlik turlari va genotiplar kesimida besh ballik shkala asosida ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Sirdaryo viloyatining ekologik stressorlar ta'siri kuchli bo'lgan hududlariga genotiplarning abiotik omillarga chidamlilik xususiyatlaridan kelib chiqib, ularni joylashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan va bu tavsiyalarni amalga oshirilishi suv tanqis hamda sho'rlangan hududlarda o'simliklar turi va genotiplarini yetishtirish agrotexnologiyasini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'simliklarni abiotik omillarga chidamliligining ekologik-fiziologik xususiyatlarini tadqiq qilish bo'yicha olingan natijalar asosida:

O'rganilgan o'simliklar navlarining tuproq sho'rlanishi va suv tanqisligi omillariga nisbatan aniqlanilgan chidamlilik belgilaridan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi G'allachilik ilmiy tadqiqot institutida abiotik omillarga chidamli navlarni yaratishda foydalanilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023 yil 16 iyundagi 08/05/2964-son ma'lumotnomasi). Natijada, abiotik stress omillarning salbiy ta'siri kuzatiladigan maydonlarga mos navlarni tanlash va joylashtirish imkonini bergan;

abiotik omillarga chidamli o'simlik turlarining aniqlanilgan genotiplaridan Sirdaryo viloyati sharoitida faoliyat ko'rsatayotgan "O'simlik mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash ilmiy-amaliy markazi" laboratoriyasida sho'rga va suv tanqisligiga chidamli navlarni tanlash hamda yaratishda boshlang'ich manba sifatida foydalanilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023 yil 16 iyundagi 08/05/2964-son ma'lumotnomasi). Natijada, stress sharoitlarda o'simliklar mahsuldorligini oshirish texnologiyalarini yaratish imkonini bergan;

shirinmiya o'simligi ekish asosida tuproqlarning sho'rlanish darajasini kamaytirish va unumdorligini oshirish (3 yilda 0-50 sm qatlamda gumus 0,68-

0,92%, azot 22-45 mg/kg, fosfor 13,6-18,4 mg/kg va kaliy 138-148 mg/kg gacha oshirish) texnologiyasidan Sirdaryo viloyat Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (Tabiat resurslari vazirligining 2023 yil 19 apreldagi 03-01/21-415-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, shirinmiya ildizlarining biologik xususiyatlariga ko'ra azot to'plovchi bakteriyalarning rivojlanishi hisobiga tuproqni 2-2,5 martagacha organik komplekslar bilan boyitish imkonini bergan;

o'simlik resurslari yordamida sho'rlangan yerlarni ekologik qayta tiklash texnologiyasi Boyovut tumanidagi "Boyovutlik zahmatkash yeri" fermer xo'jaligida ikkilamchi sho'rlanish tufayli ishlab chiqarishda foydalanishdan chiqib ketgan 50 gektar sug'oriladigan yerda sharoitga mos tanlangan o'simliklarni ekish asosida joriy etilgan (Tabiat resurslari vazirligining 2023-yil 19 apreldagi 03-01/21-415-son ma'lumotnomasi). Natijada, 25 yil davomida sho'rlanish tufayli ishlab chiqarishda foydalanilmayotgan 50 gektar ekin maydonini sho'rlanish dapajasi kamayishi va tuprog'i unumdorligini oshirish hisobiga amaliyotda foydalanish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 11 ta Respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 24 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 5 ta maqola (4 ta Respublika va 1 ta xorijiy jurnalda) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 114 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarning dolzarbligi, zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti va predmeti tavsiflanib, fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "O'simlik resurslarining stress omillariga moslashish potentsiali va uni baholash usullari", deb nomlangan birinchi bobida o'simliklarning o'sishi va rivojlanishiga tashqi stress omillar ta'siri va ularga moslashishi to'g'risida ma'lumot berilgan hamda ushbu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar natijalari tahlil qilingan. Adabiyotlar ma'lumotlari tahlilida xorijiy mamlakatlar va respublikamiz olimlarining o'simliklar resurslarining tashqi stress omillari ta'siriga moslashishi bo'yicha ilmiy natijalarning qiyosiy tahlili bayon qilingan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot obyektlari, usullari hamda tuproq va iqlim sharoitlari”**, deb nomlangan ikkinchi bobi tadqiqot obyekti, o‘tkazilgan joy sharoitlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar hamda tadqiqot usullari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar bayoniga bag‘ishlangan.

Tadqiqotlarda Guliston davlat universiteti Eksperimental biologiya laboratoriyasi qoshida tashkil etilgan **“O‘simliklar genofondi”**da saqlanayotgan donli, moyli, texnik, ozuqabop ekin turlari va ularning seleksion materiallari, navlari hamda chetdan introduksiya qilingan o‘simliklar navlaridan foydalanilgan hamda o‘simliklar mintaqa hududida tarqalishi, iqtisodiy ahamiyati, tashqi omillarga chidamlilik xususiyatlarini hisobga olgan holda tanlangan.

Tajribalar tajriba maydonlarida 4 qaytariqda tashkil etilib, har bir qaytariq 25 m² maydonni tashkil etdi. Strukturaviy elementlar va o‘simliklarning hosildorligi umumiy qabul qilingan usullar bo‘yicha hisobga olindi. Tadqiqotlar jarayonida barglar tarkibidagi umumiy suv miqdori termostat usuli bilan, hujayra shirasining quyuvlik darajasi RUO Shui 2GHS-L Digital Refraktometr asbobi (Yaponiya) yordamida, barglardagi kunduzgi suv tanqisligi barglarning suvga to‘yinganlik darajasi asosida aniqlandi. Barg hujayralarining turgotsentlik darajasi turgoromer (TN-10-60TS) asbobi (Moldova) yordamida aniqlandi.

Uchastkalardagi o‘simliklarni parvarish qilish har bir ekin uchun umumiy qabul qilingan texnologiyalar asosida va mahalliy agrotexnik talablarga muvofiq amalga oshirildi. Olingan raqamli ma‘lumotlarga statistik ishlov berish Microsoft Excel 2010 dasturi yordamida amalga oshirildi.

Dala tajribalarini o‘tkazishdan oldin tuprog‘i sho‘rlanmagan-nazorat va o‘rtacha-kuchli darajada sho‘rlangan (tajriba) dalalar belgilab olindi. Dala tajribalarini o‘tkazishda tuproqning sho‘rlanish darajalari ham alohida hisobga olindi. Barcha dala tajribalarida sug‘orishdan oldingi tuproq namligi, uning hajmiy og‘irligi va dala nam sig‘imini aniqlash yo‘li bilan tuproqning suv tanqisligi o‘rganilib, sug‘orish ishlari amalga oshirildi. Barcha tajribalar ikki xil (mo‘tadil 70% va cheklangan 50%) namlik sharoitlarida olib borildi. Barcha fiziologik ko‘rsatkichlarni aniqlash va fenologik kuzatishlar tajribalarda o‘simliklarning gullash bosqichlarida o‘tkazildi. Barcha ko‘rsatkichlarni aniqlash uchun poyaning ustki qismidan 3-4 ta barg, ya‘ni o‘rtacha rivojlangan 3-4 barglar olindi.

“O‘simliklarning fiziologik ko‘rsatkichlariga stress omillar ta‘sirini baholash”, deb nomlangan uchinchi bobi abiotik omillarni o‘simliklarning o‘sishi va rivojlanishiga ta‘sirini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalariga bag‘ishlangan. Olib borilgan tadqiqotlar davomida kuzgi bug‘doy, jo‘xori, afrika qo‘nog‘i, makkajo‘xori, kungaboqar, g‘o‘za genotiplarining fiziologik ko‘rsatkichlariga namlik va tuproq sho‘rlanishining ta‘siri o‘rganilgan.

O‘rganilgan bug‘doy navlarida optimal tuproq sharoitida o‘stirilgan o‘simliklarining barglarida suvning o‘rtacha miqdori 83,0-79,6% oralig‘ida bo‘lsa, cheklangan namlik sharoitida esa 74,6-78,9% oralig‘ida ekanligi aniqlandi. Bunda moslashuvchanlik koeffitsiyenti o‘rtacha 5,85% ekanligi aniqlandi. Eng yuqori moslashuvchanlik koeffitsiyenti Zemnitsa navida aniqlandi (1-jadval).

1-jadval**Bug‘doy barglaridagi umumiy suv miqdoriga namlik va sho‘rlanishning ta‘siri, %**

№	Bug‘doy navlari	Optimal namlik (nazorat)	Cheklangan namlik (tajriba)	Nazoratga nisbatan,%	Moslashuvchanlik koef-fitsiyenti,%
1	Do‘stlik	80,0±0,21	75,1±0,26	93,9	6,1
2	Asr	83,2±0,24	78,9±0,25	94,8	5,2
3	Zemnitsa	79,6±0,18	74,6± 0,17	93,7	6,3
№		Sho‘rlanmagan	Sho‘rlangan		
1	Do‘stlik	80,2±0,24	77,0±0,18	96,01	4,0
2	Asr	82,2±0,23	78,6±0,27	95,6	4,4
3	Zemnitsa	78,8±0,20	75,3±0,22	95,5	4,4

2-jadvalda bug‘doy bargi hujayrashirasining konsentratsiyasi va tuproq namligining o‘zgarishi (bir metrli qatlamda) taqqoslandi. Tuproq namligining har bir kamayishi hujayra shirasi konsentratsiyasining oshishiga olib keldi va aksincha, sug‘orish hujayra shirasining konsentratsiyasining pasayishiga sabab bo‘ldi.

Turli qarshilikka ega bo‘lgan navlar uchun bu qiymat sezilarli darajada farq qiladi, bu esa ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha o‘simlikning qurg‘oqchilikka chidamliligini baholash imkonini beradi. Bundan tashqari, hujayra shirasi konsentratsiyasi miqdoriga tuproqning sho‘rlanish darajasining ham ta‘siri aniqlandi. Olingan natijalarga ko‘ra, bug‘doy barglaridagi hujayra shirasining quyuvlik darajasi sho‘rlanish ta‘sirida va navlar kesimiga ko‘ra turlicha miqdorda oshgan (2-jadval).

2-jadval**Bug‘doy barglaridagi hujayra shirasining quyuvlik darajasiga namlik va sho‘rlanish ta‘siri, %**


№	Bug‘doy navlari	Optimal namlik(nazorat)	Cheklangan namlik(tajriba)	Nazoratga nisbatan,%	Moslashuv koef-fitsiyenti,%
1	Do‘stlik	11,0±0,14	12,6±0,18	114,5	14,5
2	Asr	11,8±0,20	14,3±0,16	121,2	21,2
3	Zemnitsa	10,1±0,16	11,3±0,21	111,9	11,9
№		Sho‘rlanmagan	Sho‘rlangan		
1	Do‘stlik	12,4±0,16	13,6±0,19	109,6	9,7
2	Asr	13,7±0,21	14,9±0,14	108,8	8,8
3	Zemnitsa	10,2±0,24	11,6±0,11	113,7	13,7

Olingan natijalarga ko‘ra, bug‘doy barglaridagi suv tanqisligi miqdori sho‘rlanish ta‘sirida, navlar kesimiga ko‘ra turlicha miqdorda oshgan. Olingan natijalarga ko‘ra sho‘rlanmagan sharoitda bug‘doy barglaridagi suv tanqisligining maksimal miqdori Zemnitsa navida aniqlangan bo‘lib, bunda 10,1%, minimal ko‘rsatkichi esa Asr navida 8,6% ko‘rsatkich qayd etildi. Do‘stlik navida esa bu ko‘rsatkich 9,5% ni tashkil etdi(3-jadval).

Bug‘doy barglarining kunduzgi suv tanqisligiga namlik va sho‘rlanish ta‘siri

№	Bug‘doy navlari	Optimal namlik (nazorat)	Cheklangan namlik (tajriba)	Nazoratga nisbatan,%	Moslashuvchanlik koeffitsiyenti,%
1	Do‘stlik	8,6±0,3	14,6±0,3	169,8	69,8
2	Asr	7,8±0,4	12,1±0,2	155,1	55,1
3	Zemnitsa	9,3±0,2	15,9±0,5	170,9	71,9
№	Bug‘doy navlari	Sho‘rlanmagan	Sho‘rlangan	Nazoratga nisbatan,%	Moslashuvchanlik koeffitsiyenti,%
1	Do‘stlik	9,52±0,4	15,42±0,6	161,9	61,9
2	Asr	8,60±0,5	13,58±0,4	157,9	57,9
3	Zemnitsa	10,14±0,3	17,85±0,5	176,0	76,0

O‘simlik barglarning turgotsentligi namlik bilan ta‘minlash darajasiga qarab sezilarli darajada farqlanadi. Optimal namlik sharoitlariga nisbatan cheklangan namlik sharoitida turgotsentlik darajasi nisbatan past ekanligi aniqlandi (1-rasm).



1-rasm. Bug‘doy barglaridagi hujayralarning turgotsentlik darajasiga namlik va sho‘rlanishning ta‘siri, MKM.

Olingan natijalarga ko‘ra, bug‘doy barglaridagi hujayralarning turgotsentlik darajasi sho‘rlanish ta‘sirida, navlar kesimiga ko‘ra turlicha miqdorda oshgan.

Maksimal moslashuvchanlik Do‘stlik navida kuzatilib, bunda 8,8% bo‘lsa, Asr va Zemnitsa navlarida esa nisbatan tuproq namligiga ta‘sirchanlik yuqori ekanligi aniqlanib, mos ravishda 10,3-11,77% ni tashkil etdi.

O‘rganilgan jo‘xori navlarida optimal namlik sharoitida o‘stirilgan o‘simliklarining barglarida suvning o‘rtacha miqdori 74,2-70,7% oralig‘ida bo‘lsa, cheklangan namlik sharoitida esa 71,9-67,2% ekanligi aniqlandi. Bunda moslashuvchanlik koeffitsiyenti o‘rtacha 4% ekanligi aniqlandi (4-jadval).

4-jadval**Jo‘xori barglarining umumiy suv miqdoriga namlik va sho‘rlanishning ta’siri, %**

№	Jo‘xori navlari	Optimal namlik (nazorat)	Cheklangan namlik (tajriba)	Nazoratga nisbatan, %	Moslashuvchanlik koeffitsienti, %
1	Daulet	74,2±0,4	71,9±0,6	96,9	3,1
2	Grif 619	70,7±0,7	67,2±0,7	95,0	4,9
3	Grif 616	73,6±0,2	70,7±0,3	96,0	3,9
		Sho‘rlanmagan	Sho‘rlangan		
1	Daulet	73,3±0,3	69,2±0,2	94,4	5,5
2	Grif 619	69,5±0,5	65,5±0,6	94,2	5,8
3	Grif 616	70,2±0,3	68,2±0,4	97,1	2,8

Jo‘xori bargi hujayra shirasining konsentratsiyasi va tuproq namligining o‘zgarishi (bir metrli qatlamda) taqqoslandi (5-jadval).

5-jadval**Jo‘xori barglaridagi hujayra shirasining quyuqlik darajasiga namlik va sho‘rlanish ta’siri, %**

№	Jo‘xori navlari	Optimal namlik (nazorat)	Cheklangan namlik (tajriba)	Nazoratga nisbatan, %	Moslashuvchanlik koeffitsiyenti, %
1	Daulet	14,5±0,03	15,8±0,06	108,9	8,9
2	Grif 619	12,7±0,05	13,9±0,04	109,5	9,4
3	Grif 616	13,4±0,02	14,6±0,03	108,9	8,9
№		Sho‘rlanmagan	Sho‘rlangan		
1	Daulet	15,2±0,05	18,6±0,02	122,4	22,4
2	Grif 619	13,8±0,04	15,9±0,03	115,2	15,2
3	Grif 616	14,7±0,06	16,6±0,05	112,9	12,9

Moslashuvchanlik koeffitsiyenti orqali esa namlik ta’siriga eng sezgirlikni Grif 619 navi 9,4% ko‘rsatkich bilan ko‘rsatdi, namlik ta’sirida moslashuvchanligi yuqori navlar esa Grif 616 va Daulet navlari bo‘lib, 8,9% ni tashkil etdi.

Bundan tashqari, jo‘xori o‘simligi hujayra shirasi konsentratsiyasi miqdoriga tuproqning sho‘rlanish darajasining ham ta’siri aniqlandi. Olingan natijalarga ko‘ra, jo‘xori barglaridagi hujayra shirasining quyuqlik darajasi sho‘rlanish ta’sirida, navlar kesimiga ko‘ra turlicha miqdorda oshgan.

Sho‘rlanish ta’siriga va, shuningdek, namlik ta’siriga ham eng katta sezgirlik Daulet navida moslashuvchanlik koeffitsiyentining 22,4% ko‘rsatkichi bilan qayd etildi, Grif 619 va Grif 616 esa mos ravishda 15,2-12,9% ko‘rsatkichlar qayd etildi. Turli sharoitlarda (optimal va cheklangan namlik sharoiti hamda tuproq sho‘rlanishi muhitida) suv tanqisligining atrof-muhit parametrlariga bog‘liqligi o‘rganildi.


Moslashuvchanlik koeffitsiyenti o'rtacha 24,35% atrofida bo'lib, tuproq namligi tanqisligiga 22% ko'rsatkich bilan Grif 619 navi eng molashuvchan nav ekanligi aniqlangan bo'lsa, unda eng ta'sirchan navlar sifatida Daulet va Grif 616 navlari ekanligi aniqlandi, ushbu navlarda mos ravishda 24,6-26,5% ekanligi aniqlandi. Olingan natijalarga ko'ra, jo'xori barglaridagi suv tanqisligi miqdori sho'rlanish ta'sirida, navlar kesimiga ko'ra turlicha miqdorda oshgan (6-jadval).

6-jadval

Jo'xori barglarining kunduzgi suv tanqisligiga namlik va sho'rlanishning ta'siri, %

No	Jo'xori navlari	Optimal namlik (nazorat)	Cheklangan namlik (tajriba)	Nazoratga nisbatan, %	Moslashuvchanlik koeffitsiyenti, %
1	Daulet	11,4±0,07	14,2±0,06	124,6	24,6
2	Grif 619	13,6±0,05	16,6±0,03	122,1	22,1
3	Grif 616	12,1±0,04	15,3±0,07	126,5	26,4
No	Jo'xori navlari	Sho'rlanmagan	Sho'rlangan	Nazoratga nisbatan, %	Moslashuvchanlik koeffitsiyenti, %
1	Daulet	12,2±0,04	16,1±0,06	131,9	31,9
2	Grif 619	14,4±0,03	18,5±0,03	128,5	28,5
3	Grif 616	13,6±0,04	15,0±0,05	110,3	10,3

Moslashuvchanlik koeffitsiyenti esa Grif 616 navida eng past moslashuvchanlikni namoyon etib, bunda 10% ni ko'rsatgan bo'lsa, Grif 619 navida esa ushbu ko'rsatkich 28,5% ni, Daulet navida esa 31,9% ni tashkil etib, ushbu navlar sho'rlanish ta'sirida eng ta'sirchan ekanligi aniqlandi. O'simlik barglarning turgotsentligi namlik bilan ta'minlash darajasiga qarab sezilarli darajada farqlanadi. Optimal namlik sharoitiga nisbatan cheklangan namlik sharoitida turgotsentlik darajasi nisbatan past ekanligi aniqlandi (2-rasm).



2-rasm. Jo'xori barglardagi hujayralarning turgotsentlik darajasiga namlik va sho'rlanish ta'siri, MKM

Maksimal moslashuvchanlikni Daulet navi namoyon etdi, bunda 7,9% ga farq qilgan bo'lsa, Grif 619 va Grif 616 navlarida esa nisbatan tuproq namligiga ta'sirchanlik yuqori ekanligi aniqlanib, mos ravishda 12,75-11,7% ni tashkil etdi.

Dissertatsiyaning “**Sho‘rlangan yerlarning ekologik holatini yaxshilashda fitomeliorantlardan foydalanish**”, deb nomlangan 4-bobida sho‘rlangan yerlarni ekologik qayta tiklashda o‘simliklar resurslaridan foydalanish bilan bog‘liq holda olib borilgan tadqiqot natijalari bayon etilgan. Tadqiqotlar davomida tajriba uchun tanlab olingan silliq shirinmiya (*Glycyrrhiza glabra*), akatsiya amplitseps (*Acacia ampliceps*), atripleks amnikola (*Atriplex amnicolaa*), atripleks undulata (*Atriplex undulata*) o‘simliklarini har xil darajada sho‘rlangan tuproq sharoitida o‘shirivojlanishini kuzatish bilan birga tuproq sho‘rlanishini kamaytirishdagi xususiyatlarini o‘rgandik. Galofitlarning 18-20 t/ga ni tashkil qiluvchi yer ustki fitomassasi bir yil davomida tuproqlar tarkibidagi 8-10 t gacha tuzlarni olib chiqib ketish qobiliyatiga ega ekanligi aniqlangan. Shuningdek, galofitlar tuproqlar tarkibidagi tuzlarni tortib olib, yer ustki qismi orqali suvni ko‘p bug‘latadi. Yashil biomassasida esa 2,5 t/ga miqdorida tuzlar bo‘lishi aniqlandi. Umuman olganda, galofitlar ekilgan maydonlarda bir yilda tuproqlar tarkibidagi 10-12,5 tonnagacha tuzlarni olib chiqib ketiladi.

7-jadval

Shirinmiyaning tuproq unumdorligiga ta'siri


Kontur	Namuna olingan qatlam chuqurligi, (sm)	Ozuqa elementlarining miqdori				
		Tuproqda gumus miqdori, %	N	P	K	
			mg/kg	mg/kg	mg/kg	
		201919.11				
201	0-15	0,82	21	17,2	144	
	15-50	0,70	12	13,6	138	
	50-100	0,24	7	6,8	115	
			2020 11.03			
	0-15	1,10	39	16,9	145	
	15-50	0,80	28	14,1	133	
	50-100	0,22	15	5,5	117	
			2020 10.05			
	0-15	1,50	43	22,1	149	
	15-50	0,10	33	18	148	
	50-100	0,23	24	7	121	
			2020.05.09			
	0-15	1,90	51	23	152	
	15-50	1,00	34	8,7	148	
	50-100	0,33	27	9,1	123	

Tajribalar o‘tkazilgan shirinmiya o‘simligi ekilgan konturlardagi tuproqlarning laboratoriya tahlili shuni ko‘rsatdiki, 0-50 sm qatlamda gumus

miqdori 0,68-0,92 %, azot 22-45 mg/kg, fosfor 13,6-18,4 mg/kg va kaliy 138-148 mg/kg atrofida tebranib, tuproqning unumdorlik darajasi o‘shib boradi. Ushbu yillar davomida tuproqning ozuqa moddalar tahlili ko‘rsatishicha, shirinmiya ildizlarining mavjudligi tuproqda azot to‘plovchi bakteriyalarni rivojlanishi organik moddalar bilan 2-2,5 martagacha boyiganligini ko‘rsatdi (7-jadval).

Shirinmiya (*Glycyrrhiza glabra*) ekilgan maydonlarda sizot suvlarining sathi va minerallashganligi monitoringi. Tajriba maydonlarida sizot suvlarining chuqurligi yoz oylarida 1,26-1,60 m, qishda esa 2,10-2,65 m atrofida o‘zgaradi. Ularning konturlar bo‘yicha minerallashganlik darajasi 4 g/l dan 6 g/l gachani tashkil qildi. Tadqiqotlar natijalari asosida shunday xulosa qilish mumkinki, tajriba maydonlariga shirinmiyaning ekilishi bilan tuzlarning kamayishi asta-sekin, uzluksiz holda ro‘y berdi.

Fevral oyi boshida issiqxona sharoitida polietilen xaltachalarda akatsiya amplitseps (*Acacia ampliceps*) urug‘lari ekildi. Nihollar unib chiqqanidan keyin, aprelning birinchi o‘nkunligida ular tajriba maydoniga ekildi. Vegetatsiya davrining issiq kunlarida tuproqqa 600-700 va 800 m³/ga me‘yorida sho‘r suv berilib, qator oralariga ishlov berildi. Fenologik kuzatuvlar ko‘rsatishicha, sho‘rlangan sharoitda introdutsiyalangan o‘simliklar yaxshi rivojlandi (3-rasm).



3-rasm. Akatsiya amplitseps (*Acacia ampliceps*)ning o‘shish va rivojlanish dinamikasi

Tajriba maydoniga ekilgan barcha o‘simliklarning o‘shishi va rivojlanishi kuzatildi. Akatsiya ampliceps (*Acacia ampliceps*) ning o‘shish va rivojlanish sur‘atida yuqori ko‘rsatkichlar kuzatildi, ya‘ni o‘simlik o‘shish tezligi oyiga 12-18 sm. ni tashkil etdi (8-jadval)

Shirinmiya (*Glycyrrhiza glabra*)ni fitomeliorant sifatida sho‘rlangan tuproqli sharoitda almashlab ekishda foydalanish bevosita tuproq degradatsiyasining oldini olish va bilvosita sho‘rlanish tufayli foydalanilmayotgan yerlardan foydalanish imkoniyatining yuzaga kelishi orqali qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish imkoniniberadi.

8-jadval.**Sho‘rlangan tuproq sharoitida chetdan introduksiya qilingan o‘simliklarning o‘sishi va rivojlanishi**

Introduktsiya qilingan o‘simliklar	O‘simliklarning bo‘yi (sm)	Poyasi diametri (sm)	Bargi hajmi (mm ²)	O‘simlik massasi (kg/m ²)
Aprel				
<i>Acacia ampliceps</i>	15,6	29,22	12,59	0,8
<i>Atriplex nummularia</i>	12,1	2,16	2,46	0,6
<i>Atriplex amnicola</i>	9,1	4,80	0,48	0,7
<i>Atriplex undulata</i>	8,6	2,90	1,05	0,9
Noyabr				
<i>Acacia ampliceps</i>	88,6	84,6	91,02	1,5
<i>Atriplex nummularia</i>	65,4	14,8	2,04	1,0
<i>Atriplex amnicola</i>	51,6	56,9	1,05	1,1
<i>Atriplex undulata</i>	109,2	65,7	3,41	1,3

Shuningdek, yuqori sho‘rlangan ekin maydonlarida avstraliya akatsiyasi (*Acacia ampliceps*), atripleks nummulariya (*Atriplex nummularia*), atripleks amnikola (*Atriplex amnicola*) va atripleks undulata (*Atriplex undulata*) kabi o‘simliklarning ham tuproq sho‘rlanishini kamaytirishda, sho‘rlangan yerlarning cho‘llashishini oldini olish bilan birga chorva mollari uchun to‘yimli ozuqa manbai bo‘lib xizmat qiladi. Shirinmiya va shu kabi fitomeliorantlar kelajakda sho‘rlangan yerlarning meliorativ holatini yaxshilab, ishlab chiqarishga qaytarish orqali ekologik muhitni yaxshilashda va iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda muhim manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

XULOSALAR

1.O‘simlik genotiplariga suv tanqisligi ta‘sirini baholash uchun barglardagi umumiy suv miqdori, barglardagi kunduzgi suv tanqisligi, hujayra shirasining quyuqlik darajasi, barg hujayralarining turgotsentlik darajasi va boshqa ko‘rsatkichlar optimal va cheklangan namlik sharoitlarida navlar kesimida fiziologik ko‘rsatkichlar qiymatining har xil darajada o‘zgarishi navlarning biologik xususiyatlariga bog‘liq holda har xil bo‘lishi ko‘rsatib berilgan.

2.O‘simlik genotiplariga tuproq sho‘rlanishi ta‘sirini baholash maqsadida, barglardagi umumiy suv miqdori, barglardagi kunduzgi suv tanqisligi, hujayra shirasining quyuqlik darajasi, barg hujayralarining turgotsentlik darajasi o‘rganilib, ularning har xil darajada o‘zgarishi genotiplar kesimida baholangan hamda o‘simlik resurslarining abiotik omillarga chidamliligini ularning ekologik-fiziologik xususiyatlarini baholash orqali stressga chidamlilik potentsiali aniqlangan hamda tur va navlarga stress omillarning ta‘sir ko‘rsatkichlari aniqlanilgan.

3. O'simliklar turlari kesimida genotiplarning chidamlilik darajalari qiyosiy o'rganilib, seleksion jarayonda tanlov ishlarini olib borish hamda boshlang'ich manbalarni tanlash uchun noqulay abiotik omillarga bardoshlilik va mahsuldorlik darajasi yuqori bo'lgan genotiplar baholangan hamda ekologik stress omillarga nisbatan majmuaviy chidamli hamda mahsuldorlik darajasi yuqori bo'lgan navlar ilmiy asoslangan.

4. Ekologik stress omillarga nisbatan majmuaviy chidamlilik hamda mahsuldorlik darajasi o'simlik turlari va genotiplar kesimida beshballik shkala asosida ilmiy asoslangan bo'lib, ularni Sirdaryo viloyati tumanlarida joylashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

5. Sho'rlangan ekin maydonlarini o'simliklar resurslari yordamida ekologik qayta tiklashning agroekologik asoslari ishlab chiqilgan va stress omillarga chidamli bo'lgan navlarni tanlash orqali suvi tanqis hamda sho'rlangan ekin maydonlariga mos o'simlik tur va navlari tanlangan.

6. Tadqiqotlar olib borilgan Sirdaryo viloyatidagi sug'oriladigan yerlarda ikkilamchi sho'rlanish jarayoni tezlashib, meliorativ holat keskin buzilganligi va bu holat o'simliklarning o'sishi va rivojlanishi, mahsuldorlik ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir etishi hamda sho'rlanishning hududdagi agroekologik xavflilik darajasi aniqlangan.

7. Kuchli sho'rlangan va degradatsiyaga uchrab, tashlandiq holga kelgan yerlarni melioratsiyalash va unumdorligini tiklashda shirinmiyadan foydalanish alternativ tadbir sifatida o'rganildi hamda shirinmiya o'sish-rivojlanish davrida o'z tanasiga tuproqdagi tuzlarni so'rib olish, sizot suvlari sathini pasaytirish xususiyatiga ko'ra sho'rlangan ekin maydonlarini o'simliklar resurslari yordamida ekologik qayta tiklashning agroekologik asoslari ishlab chiqilgan.

TAVSIYALAR:

1. Sirdaryo viloyatining o'rtacha-kuchli sho'rlangan tuproqlar sharoitida bug'doy, jo'xori, Afrika qo'nog'i, makkajo'xori, kungaboqar va g'o'za ekinlari navlarining abiotik omillarga ekofiziologik chidamlilik darajasini baholashda barglardagi umumiy suv miqdori, hujayra shirasining quyuqlik darajasi, kunduzgi suv tanqisligi va hujayraning turgotsentlik darajasini aniqlash taklif etiladi.

2. Sho'rlangan va degradatsiyaga uchrab, tashlandiq holga kelgan yerlarni ekologik qayta tiklashda shirinmiya o'simligidan alternativ tadbir sifatida foydalanish maqsadga muvofiq. Shirinmiya o'sish-rivojlanish davrida o'z tanasiga tuproqdagi tuzlarni so'rib olish evaziga sizot suvlari sathini pasaytirish orqali tuproqning mexanik tarkibini yaxshilab, unumdorligini oshiradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD. 03/30.12.2019.В.72.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ БУХАРСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ**

ГУЛИСТАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

КЕНЖАЕВ АЗИЗ АБИТКУЛОВИЧ

**ЭКОЛОГО-ФИЗИОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ
УСТОЙЧИВОСТИ РАСТЕНИЙ К АБИОТИЧЕСКИМ
ФАКТОРАМ**

03.00.07 - Физиология и биохимия растений и 03.00.10 -Экология

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (phd)
по биологическим наукам**

Бухара – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по биологическим наукам зарегистрирована за номером В2023.1.PhD/В406 в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Диссертация выполнена в Гулистанском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.buxdu.uz) на Информационно-образовательном портале “ZiyoNet” (www.ziyo.net).

Научные руководители:

Холлиев Аскар Эргашович
доктор биологических наук, профессор
Кушиев Хабибжон Хожибобоевич

Официальные оппоненты:

доктор биологических наук, профессор
Мамбетуллаева Светлана Мирзамуратовна
доктор биологических наук, профессор

Аутхонов Бурхон Собирович
доктор философии по биологическим наукам,
доцент

Ведущая организация:

Каршинский государственный университет

Защита диссертации состоится « ____ » _____ 2024 г. в ____ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.В.72.02. по присуждению ученой степени доктора философии при Бухарском государственном университете по адресу: 200117, г.Бухара, ул. М.Икбол 11, БухГУ. Тел.: (+99865) 221-29-14, факс: (+99865) 221-26-12, e-mail: bsu_info@edu.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного университета по адресу: 200117, г.Бухара, ул. М.Икбол 11, БухГУ. Тел.: (+99865) 221-29-14, факс: (+99865) 221-26-12.)

Автореферат диссертации разослан « ____ » _____ 2024 года.

(реестр протокола рассылки № ____ от « ____ » _____ 2024 года).

Х. Т. Артикова

Председатель научного совета по присуждению учёных степеней, доктор биологических наук., профессор

А. М. Кабилов

Учёный секретарь научного совета по присуждению учёных степеней, доктор философии (PhD) по биологическим наукам, доцент

С. Б. Буриев

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению учёных степеней, доктор биологических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В условиях нарастания напряженности экологической обстановки в мире проблема сохранения генетических ресурсов растений и их рационального использования становится все более актуальной и носит геополитический характер. Внешние абиотические факторы, в том числе повышение степени засоления почвы, влияют на рост и развитие растений в засушливых районах, вызывая снижение показателей продуктивности. Соответственно, улучшение мелиоративного состояния засоленных пахотных земель, отбор видов и сортов растений, устойчивых к условиям засоления и засухи, имеют важное значение. При этом удовлетворение потребности населения в продуктах питания и создание системы развития кормовой базы животноводства на основе разработки мер по повышению продуктивности растений, исходя из анализа физиолого-биохимических характеристик растений, является актуальным вопросом.

В целях улучшения экологии почв в мире с помощью растительных ресурсов и удовлетворения потребностей населения в экологически безопасных продуктах питания проводятся научные исследования по повышению урожайности и качества урожая сельскохозяйственных растений, селекции, созданию видов и сортов, устойчивых к внешним стрессовым факторам. В связи с этим особое внимание уделяется сохранению и развитию био и агробιοразнообразия на основе изучения физиолого-биохимических свойств растений, Управления влиянием внешних факторов на их продуктивность, рост и развитие, а также анализа изменений в показателях биологических признаков.

В нашей стране достигнуты определенные результаты за счет сохранения и воспроизводства генетических ресурсов растений и их использования в развитии аграрной отрасли, исследований на основе молекулярно-генетического и физиологико-биохимического подходов. В «Стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы»¹ отмечается, что в связи с удовлетворением потребности населения в продовольствии, организация генетической базв сельскохозяйственных растений является одним из основных факторов. В соответствии с этим достигнут ряд успехов в области экологического восстановления засоленных посевных площадей с помощью растительных ресурсов, отбора пригодных к почвенно-климатическим условиям видов растений и создания сортов на основе селекционного и молекулярно-генетического подходов. Вместе с тем, в связи с анализом устойчивости растений к внешним стрессовым факторам, особое внимание уделяется и

¹ Стратегия развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы, Решение № 06/19/5853/3955 от 2019 года.

исследованию физиолого-биохимических показателей в условиях засоленных почв.

Данное исследование в определенной степени служит для реализации задач, обозначенных в Указе Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», в Постановлении Президента Республики Узбекистан ПП-4239 от 14 марта 2019 года «О мерах по развитию сельскохозяйственной кооперации в плодоовощной отрасли» по модернизации и ускоренному развитию сельского хозяйства, в Постановлении Кабинета Министров № 484 от 11 июня 2019 года «Об утверждении Стратегии по сохранению биологического разнообразия на период 2019-2028 годы» по отбору и созданию видов и сортов растений, пригодных для условий, а также в других соответствующих нормативно-правовых документах, относящихся в этой деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики Узбекистан. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и техники республики V. «Сельское хозяйство, биотехнологии, экология и охрана окружающей среды».

Степень изученности проблемы. За рубежом потенциал устойчивости растительных ресурсов к неблагоприятным факторам, а также фитоценотические и эколого-физиологические особенности видового сообщества приведены в работах Н.Willis, D.Elwain (2002), А. Жученко (2005), Н.Шевелухи (2005), С.Россева и др. (2011) и Н.Лутовой (2013). Механизм клеточного и популяционного уровней устойчивости растений к стрессовым факторам можно наблюдать в работах Ф.Титова и др.(2007), R.Munns, M.Tester (2008).

